

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI. G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLAR.

Mirzaqandova Nozimaxon G‘ayratjon qizi  
*Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola 15-asrda yashab ijod qilgan Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridan “Farhod va Shirin” dostoning g‘oyaviy-badiiy xususiyati, kompozitsiyasiga bag‘ishlanadi. Alisher Navoiyning bu dostoni ma‘no mazmun tomonidan ham boshqa ijodkorlarning dostonidan farq qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *An‘analar, afsonalar, she‘riyat, obrazlar talqini.*

Navoiy asarlarining yoshlarimizning barkamol bo‘lib yetishishlaridagi ahamiyati, badiiy kuchi, qimmatini alohida qayd etilgan. Alisher Navoiyning badiiy ummoni nodir dur-u javohirlarga to‘la. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Chin xoqoning o‘g‘li Farhodning yoshlikdagi bilimga chanqoqligi, uning piri komili Suqrot nasihati bilan sof sevgi va ma‘naviy yuksalish yo‘lidagi kurashi, mamlakat obodonchiligi yo‘lida tog‘dan ariq qazib, qaqragan yerlarga obi – hayot bag‘ishlashi, sevgilisi Shirin mamlakatini bosqinchi, xudbin Xisravdan himoya qilishi, go‘zal Shirinning sof sevgi yo‘lidagi barcha harakatlari, “Layli va Majnun” dostonidagi Qaysning – Majnunning Layliga bo‘lgan insoniy va ilohiy sevgisi, o‘z navbatida, Laylining Qays yo‘lida halok bo‘lishi, “Sab‘ai sayyor” dostonidagi shoh Bahrom va Diloromning sarguzashtlariga bag‘ishlangan barcha hikoyatlar komil insonning voyaga yetishida saboq va namuna vazifasini bajaradi. Binobarin, “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki,- deydi I.Karimov,- hayotimizning barcha sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an‘analarimizning saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir”.

Asrlar osha omon qolib, bizga yetib kelgan milliy qadryatlarimiz, ma‘naviy va ma‘rifiy madaniyatimiz, ilm – ma‘rifat, shuningdek, pedagogika fani mustaqillik sharofati ila yangidan rivoj topa boshladi.

Ma‘lumki, har bir mustaqil davlatning istiqboli fan – texnika, ilm – maorif taraqqiyoti hamda barkamol milliy kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan bog‘liqdir. Shu bois ham mustaqil davlatimiz ilm – fan hamda maorif rivojiga salohiyatli milliy kadrlar yetishtirishga jiddiy e‘tibor bermoqda.



Shaxsni barkamol bo'lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma'naviy dunyosini boyishiga sabab bo'ladigan omillardan biri – bu badiiy adabiyotdir. Aslini olganda o'zbek milliy adabiyotimizning poydevorini qurgan, uni jahon miqyosida san'at darajasiga ko'targan buyuk daho Alisher Navoiy bo'lib, bu buyuk zotning ummonga teng asarlari, ayniqsa, jahon adabiyotidan muhtasham o'rin olgan “Xamsa” asari asrlar osha bashariyatning bebaho durdonasi, ma'naviy – ma'rifiy, axloqiy – estetik mulkiga aylandi. Ana shunday so'z san'atining durdonasi hisoblangan “Xamsa” asarini o'rganish, ayniqsa, Navoiy idealini o'quvchilarga yetkazish ko'p jihatdan o'qituvchining ilmiy – nazariy bilimi, dars berish san'ati, aniqrog'i, “Xamsa” asaridagi qahramonlar sarguzashti va idealini tahlil qilishga bog'liq. Bu jihatdan umumta'lim maktablari o'qituvchilari adabiyot kursi bo'yicha darslikka ega bo'lganliklari holda, Navoiydek buyuk zotning asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularni o'quvchilar ongiga yetkazishga oid adabiy – tanqidiy va metodik qo'llanmalarga ega emas, ehtiyoj sezadilar . . . Bu narsa adabiyot o'qitish metodikasi sohasida, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishda ilmiy metodik, aniqrog'i, tadqiqot ishlarini olib borish va dars samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy metodik qo'llanmalarni yaratishni taqozo etadi.

Menga ne yoru oshiq havasdur,

Agar men odam o'lsam ushbu basdur.

“Farxod va Shirin” “Xamsa”ni tashkil etgan dostonlarning ikkinchisi bo'lib, Navoiyning eng ko'p shuhratiga sabab bo'lgan asardir. Bu asarning ijobiy qahramonlari Navoiy zamonasi uchun ideal obrazlar edi, ammo salbiy qahramonlari har qadamda uchralar edilar, ya'ni Navoiy bu ajoyib dostonini u zamonning shohlari va shahzodalari uchun bir dasturilamal sifatida taqdim qilgan edi. Malika Mahinbonu bilan shahzoda Farxodning ish uslubi Husayn Boyqaro bilan uning o'g'li ham valiahdi Badiuzzamon kabilarga namuna qilib berilgan.

“Farxod va Shirin” dostonida olg'a surilgan g'oyalarni yaxshiroq anglamoq uchun Navoiy yashagan tarixiy davrga nazar solib o'taylik. Jahongir Amir Temurning vafotidan so'ng, uning poyonsiz mamlakatida zo'r siyosiy parokandalik yuz beradi. Ammo Temur avlodlari (temuriylar) 75-80 yillar davomida o'zaro taxt talashib urushdilar. Uzoq vaqt davom etgan bu ichki urushlar natijasida xalq xo'jaligi qaqshaydi. Navoiy ana shu Temur sulolasining so'nggi podshosi Husayn Boyqaro zamonida unga vazr bo'lib yashaydi. Bu vaqtlar Temur sulolasining inqirozga yuz tutgan davri bo'lib, temuriylar tom ma'nosi bilan razolatga yuz tutgan edilar. “Farxod va Shirin”



dostoni ana shunday tarixiy davrda tarbiyaviy maqsadni ko`zda tutib yozilgan bir asardir.

Navoiyning bu asari (“Xamsa”dagi boshqa asarlari ham) sharq dostonchiligi uchun an`anabo`lib qolgan masnaviy yo`lda , aruz vaznida yozilgan.

Navoiy Ozorbayjon va Eron shoirlari tomonidan bir necha marta qalamga olingan bu sharq afsonasini ishlashga kirishar ekan, bu vosita bilan o`zining ideallarini namoyish qilish imkoniyati bormi- yo`qligi haqida ko`p bosh qotiradi. Chunki, Navoiy she`r da yagonalikni har narsadan ustun sanaydi:

Ani nazm etki, tarhi toza bo`lg`ay,

Ulusga mayli beandoza bo`lg`ay.

Navoiyning jiddiy ilmiy tekshirishlari bu afsonadan o`z g`oyalarini tashviq qilish mumkinligini ochib beradi.

Topildi oncha so`z kim, komim erdi,

Qo`yildi oncha maykim jomim erdi.

Bu durlar chunki manzum bo`lg`usidur,

IQuloq solg`anga ma`lum bo`lg`usidur.

Darhaqiqat, Nizomiy va Xisravlar bu syujetga tamom boshqa jihatdan yondashgan va uni boshqacha tasvir qilgan edilar. Navoiy esa bu syujetga boshqa ma`no bag`ishlamoqchi, unga yangi “durlar” qo`shmoqchi bo`ldi. Navoiy tomonidan qo`shilgan bu “durlar”ning nimadan iborat ekanligini anglamoq uchun Nizomiy dostoniga bir nazar tashlaylik:

Nizomiyning bu syujetidagi asari “Farxod va Shirin” emas, “Xisrav va Shirin” deb ataladi. U dostonning asosiy va ijobiy qahramoni Eron podshohi Xisravdir. Farxod, Shirin, Farxodning sodiq do`sti Shopur bo`lsa, ahamiyatsiz kishilar safida tasvir qilinadi. Navoiyda esa, buning aksi. Navoiyning dostonida markaziy obrazlar Farxod, Shirin, Shopur va Bahrom bo`lib, bular Navoiyning oliyjanob g`oyalarini tashuvchilardir. Shuning uchun Navoiyning butun e`tibori shu qahramonlarga qaratilgandir. Nizomiyning sevimli qahramoni Xisrav esa Navoiyning omonsiz qahr-g`azabiga duchor bo`ladi. Navoiy Xisravni inson qiyofasida yaratilgan yirtqich sifatida o`z o`quvchisiga taqdim qiladi va uning oshiqlik da`vosida bo`lgani uchun mazax qiladi.

“Farxod va Shirin” dostonida butun voqea va hodisalar ikki yoshning haroratli, sof sevgisi fonida beriladi. Qahramonlarning boshqa xislatlari esa, haqiqiy oshiqning tabiiy fazilati sifatida bayon qilinadi. Chindan ham Navoiy o`zining bu ajoyib dostoni bilan muhabbat kitobiga yangi va hikmatli sahifalar qo`shdi.



“Farxod va Shirin” dostonida bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan ikki naslni koʻramiz. Bir tomonda Farxod, Shirin, Shopur, Bahrom, ikkinchi tomonda Xisrav, Sheruya, va Yosuman. Farxod- bu butun insoniy fazilatlarni oʻzida aks ettirgan oliyanob odamning obrazidir. Farxoddek bir odamni kishilik jamiyati uzoq zamondan beri orzu qiladi. Nihoyat, bu ideal odam Navoiyning hayol gulshanida oʻsib voyaga yetadi. Agar diqqat qilinsa, Farxodda jahon adabiyotidagi eng yaxshi qahramonlarning hamma fazilatlari markazlashtirilgani koʻrinadi.

Farxod-olim va mutafakkir.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm, Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Dedi:”har ishqki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod...”

Farxod – favqulodda jismoniy kuchga ega boʻlgan qahramon ham vatanparvar obrazidir.

Farxod shohlikni “tuproq bilan teng “ koʻrib, butun hayotini bilimga, maʼrifatga va sanʼatga bagʻishlaydi. Bilim uning quvvatiga quvvat qoʻshadi, u ilmdan kuch olib, qattiq toshlarni mumdek kesdi. Hayot tilsimlarini ochay deb eng xatarli yoʻllarga qadam qoʻydi. Jamiyatning oʻsishiga gʻov boʻlgan qora kuchlarni: ogʻzidan oʻt sochuvchi ajdarhoni, Ahraman nomli mudhish devni oʻldirdi, “Temir odamlarni” kurashda yengib, tilsimlarni ochdi. Yangi ilmiy moʻjizalar yaratdi. Yolgʻiz oʻzi yuzlab dengiz qaroqchilarini yengib, oʻlim kutgan kishilarga yangi hayot bagʻishladi. Maʼshuqasining vataniga hujum qilgan Xisrav askarlarining boshiga balo toshini yogʻdirdi.

Farxod oʻzining bu favqulodda ishlariga ajib bir yakun yasaydi. U men shunday ishlarni qildimki, odam bolasi yaratilgandan beri unday ishni qila olmagan edi, deb toʻgʻri aytadi:

Biri Yunonga markab surganimni,

Qilib razm ajdaho oʻldirganimni.

Ikkinchi-Ahramanga aylabon kin,

Jahonni qilganim qon birla rangin.

Uchichi- Iskandari Rumiylar tilsimin-

Ki ochdim tang qilib yer birla jismin,

Boʻlib toʻrtinchi-Suqrotga raqamkash

Ki gʻori ichra kirdim, ajdahovash.

Ki to olam binosi boʻldi bunyod. Bu yangligʻ qilmadi ish odamizod.

Farxod-donishmand va mamlakat obodonchiligi uchun kurashuvchi inson sifatida gavdalanib, u oʻzining bilim va hunarini jamiyatga bagʻishlaydi:

Ki vayronaliklarida yuz guhardur,



Agar qilsam madad voqe hunardur.

Hunarni asrabon netkumdur oxir?

Olib tuproqqamu ketkumdur oxir?

Farxod –hammadan ham haqiqiy oshiq obrazdirki, Navoiy undagi boshqa sifatlarni ana shu oshqlikning samarasidek talqin qiladi.

Navoiy bu mukammal shaxsni o`ziga zamondosh bo`lgan shaxzodalar uchun ibrat tarzida yuqori ko`taradi va ularga qarshi qo`yadi.

Shirin- o`zining fazlu kamoli va dunyoni anglashi jihatidan Farxoddan sira kam bo`lmagan bir olijanob qizdir. Malika Mahinbonu davlatni idora qilish ishida jiyani Shirinning oqilona maslahatlarini bir qonun sanaydi. Mahinbonuning mamlakat obodonchiligi uchun ariqlar, kanallar qazdirishi- Shirinning dono maslahatlari natijasidir. Shirin o`zining go`zalligi bilan emas, balki tengsiz aqli, farosati, donishmandligi bilan Mahinbonu saroyida ma`naviy kuch bag`ishlaydi.

Shirin qattiq irodali, jasur qiz sifatida ayniqsasevimlidir. Uning boshida o`lim qilichlari yaltiraganda ham taslim bo`lmaydi, bu jihatdan qaraganda, Shirin tiz cho`kib yashagandan tik turib o`lish afzal, deydigan asrimizning qizlariga o`xshaydi.

Farxod bilan Shirin bir-birlarini eng otashin muhabbat bilan sevadilar. Shirin Farxodni yolg`iz go`zal shaxzoda bo`lgani uchun emas, balki har narsadan oldin dunyoning yagona olimi, har ishga qodir, hunarlarni egallagan va fazlu kamolotga tengsiz bo`lgani uchun sevadi. Ya`ni bularning sevgisi chuqur ijtimoiy mundarijaga ega. Bunday pok va samimiy sevgi, sevuvchining ma`naviyatini seviluvchining sharafini ko`taradi. Navoiy bunday sevgini insoniylik nishoni deb ataydi.

Hijobi boda zo`ridinki ketti-

Pari izhori insoniyat yetti:

-Ki ey olam eliding fard, nodir,

Kelib zoting bari qudratda qodir,

Hunarda zerdasting barcha olam...

Hunar yo`qkim, kamolu fazl aro ham.

Navoiy fikricha , ishq odamning qadru qimmatini osmon yuksakligiga ko`taradi. Shuning uchun Shirin o`z sevgisining asli mohiyatini haqiqiy odam bo`lishdan iborat deb biladi:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur ,

Agar men odam o`lsam ushbu basdur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи.–Т.: Ўқитувчи, 1976.
3. Орифий Ш. Мактабда лиро-эпик асарларни ўрганиш. . – Т.: Ўқитувчи, 1981.
4. Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). –Т.: Kamalak,1991.

